



29 12 2023-yil

106 - sonli

Toshkent shahri

**"O'zagrosug'urta" AJ tizimida xarid jarayonlarini yanada takomillashtirish
chora-tadbirlari to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5171-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarining loyihaladi, davlat xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-332-son qarori ijrosini ta'minlash hamda "O'zagrosug'urta" AJda tovar (ish, xizmat)larni sotib olish sohasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin:

- "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5171-son qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-son qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarining loyihaladi, davlat xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-332-son qarori;

2. "O'zagrosug'urta" AJ ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larning xaridi to'g'risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

3. "O'zagrosug'urta" AJ ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish, Xaridlar bo'limi ma'sul xodimi zimmasiga yuklatilsin.

4. Xaridlar bo'limi ma'sul xodimi shartnoma shartlarini buzgan etkazib beruvchilar ro'yxatini shakllantirib, boshqaruv raisiga va davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organga ma'lumot berish vazifasi yuklatilsin.

5. Eng yaxshi takliflarni tanlashni o'tkazish va tender savdolari mezonlarida tegishli departament va bo'limlar tomonidan Ishlar boshqarmasi menejeri S. Xasanov kelib tushgan texnik topshiriqlarida ishtirokchilarga qo'yiladigan shartlar keltirilgan bo'lsa, har bir shart bo'yicha alohida baholash mezoni bilan taqdim qilinishi ta'minlansin.

6. Hududiy filiallar tovar (ish, xizmat)lar sotib olish bo'yicha mazkur buyruq asosida yangi tahrirdagi xaridlarni amalga oshirish bo'yicha yagona ichki Nizomini ishlab chiqsin.

7. Ijro etuvchi aparat ushbu buyruqni "O'zagrosug'urta" AJ tegishli departament va hududiy filiallarga yetkazilishini ta'minlansin.

8. Mazkur buyruq bajarilishini nazorat qilishni Boshqaruv raisining o'rinbosari A. Yusupov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv raisi

 **Sh. Rastlov**

**"O'zagnosug'urta" AJ ehtiyojlari uchun
tovar (ish, xizmat)larning xaridi to'g'risida
NIZOM**

1-BO'LIM: SHARTLAR VA TA'RIFLAR

1.1. **Buyurtmachi** – "O'zagsug'urta" AJ va uning hududiy filiallari.

1.2. **Xarid** – Buyurtmachining ushbu Nizomda nazarda tutilgan yetkazib beruvchilar (ijrochilar, pudratchilar) bilan tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, shuningdek mol-mulkni xarid qilish va ijaraga olish bo'yicha shartnomalar tuzish maqsadida harakatlari.

1.3. **Xarid faoliyati** – ushbu Nizomga muvofiq Buyurtmachining tovarlarga, ishlarga, xizmatlarga bo'lgan o'z ehtiyojlarini qondirish bo'yicha amalga oshirilgan faoliyati bo'lib, u xaridlarni rejalashtirish bosqichlari, xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish, shartnomalarni bajarish, xarid tartib-taomillarini o'tkazish natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish, shuningdek xarid faoliyati natijalari bo'yicha hisobot yuritishni o'z ichiga oladi.

1.4. **Maxsus axborot portalining operatori** – davlat xaridlarining sub'ektlariga xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish, maxsus axborot portaliga e'lonlarni, buyurtmanomalarni hamda davlat xaridlari va ularning yakunlari to'g'risidagi boshqa axborotni joylashtirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi maxsus vakolatli yuridik shaxs;

1.5. **Maxsus axborot portali** – operatorning davlat xaridlari o'tkazilishini, davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlar, davlat xaridlari yakunlari, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflari haqidagi axborotning va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborotning elektron shaklda joylashtirilishi va ko'rilishini, shuningdek elektron davlat xaridlari o'tkazilishini ta'minlovchi veb-sayti va maxsus elektron platformasi;

1.6. **Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affilangan shaxsi** — qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan va (yoki) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatadigan, shu jumladan yozma kelishuv asosida ta'sir ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan shunday huquqqa ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

1.7. **Buyurtmachi sayti** – "O'zagsug'urta" AJning - www.agros.uz rasmiy sayti.

1.8. **Mas'ul ijrochi** – Buyrug' bilan tayinlangan xaridla bo'limi ma'sul xodim.

2-BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Nizomning asosiy maqsadi:

"O'zagsug'urta" AJda samarali ishlab chiqarish faoliyatini takomillashtirish uchun tashkiliy tuzilmalar va xodimlarning tovar (ish, xizmat)larga bo'lgan ehtiyojlarini o'z vaqtida, sifatli va to'liq qondirilishini ta'minlab, xaridlar bo'yicha faoliyatining samarali, shaffof tizimini tashkil etishni tartibga solishdan iborat.

2.2. Nizomning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- jamiyatning xarid faoliyatining O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiqligini ta'minlash;

- xaridlar samaradorligini oshirish, shu jumladan xaridlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash, tovar (ish, xizmat)larning xarid xarajatlarini kamaytirish;
- xarid faoliyati jarayonida korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish;
- xaridlarni samarali boshqarish tizimini joriy etish;
- xaridlarning shaffoqligi, raqobathardoshligi va samaradorligini ta'minlash orqali Jamiyat mufozini yaxshilash va investitsiya jozibadorligini oshirish.

2.3. Tovar (ish, xizmat)lar xaridi to'g'risidagi ushbu Nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom):

O'zbekiston Respublikasining:

2021-yil 14-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi O'RQ-666-son Qonuni,

2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining:

2018-yil 28-sentabrdagi PQ-3953 "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori,

2019-yil 10-yanvardagi PQ-4105-sonli "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi,

2019-yil 5-dekabrda PQ-4544-sonli "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori,

2020-yil 15-apreldagi PQ-4678-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori,

2020-yil 21-avgustdagi PQ-4812-sonli "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori,

2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni,

2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-sonli "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni,

2021-yil 2-iyuldagi PQ-5171-sonli "Davlat xaridlari shaffoqligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori,

2022-yil 25-iyuldagi "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-332-sonli qarori,

2022-yil 9-noyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-244-sonli farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining:

2019-yil 30-sentyabrdagi VMQ-833-sonli "Sanoat yarmarkalari va elektron kooperatsiya birjasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori,

2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-sonli qarori.

2.4. Ushbu Nizom Buyurtmachining xarid faoliyatini tartibga solib, o'z ichiga xaridlarni rejalashtirish tartibi, xarid usullari va ularni qo'llash shartlarining tavsifi, xarid tartib-taomillarini tayyorlash va o'tkazish tartibi, shu jumladan xaridlar ishtirokchilariga va xarid to'g'risida hujjatlar mazmuniga qo'yiladigan talablarni, tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo'yicha shartnomalar tuzish va ularni bajarish tartibini, xaridlarning axborot ta'minotiga talablar va Buyurtmachining xarid faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq boshqa qoidalarni o'z ichiga oladi.

2.5. Xarid faoliyatini amalga oshirishda Buyurtmachi quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- xarid faoliyatining axborot shaffofligi;
- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga nisbatan kamsitish va raqobatni asossiz cheklashlarga yo'l qo'ymaslik, tenglik, adolatlilik;
- mahsulotlarni xarid qilish uchun mahtlag'larni maqsadli va iqtisodiy samarali sarflash (zarurtaga ko'ra, xarid qilinayotgan mahsulotlarning hayot sikli qiymatini hisobga olgan holda) va Buyurtmachining xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;
- xarid faoliyati ishtirokchilariga o'lcovsiz talablar qo'yish yo'li bilan xarid qilish tartib-taomillarida qatnashishga ruxsat berish cheklanishiga yo'l qo'ymaslik.

2.6. Xarid faoliyatini amalga oshirish jarayonida Buyurtmachi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Nizomga amal qiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu nizom o'rtasida tafovutlar yuzaga kelgan holatda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ustuvorlik beriladi.

2.7. Ushbu Nizom asosida Buyurtmachi tashkiliy tuzilmalariga xarid faoliyatining alohida masalalari bo'yicha qaror qabul qilish vakolatini bergan hollarda qonunchilikka muvofiq ish yuritadi.

3-BO'LIM. NIZOMNING QO'LLANILISH SOHASI

3.1. Ushbu Nizom Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan, quyidagi:

- qimmatli qog'ozlar,
- valyuta qimmatliklari,

- mol-mulkklar aldi-soldisi,
- qurilish ishlari uchun ijrochilar, podratichilar bilan shartnomalar (kontraktlar) tuzish va bajarishdan tashqari barcha tovar (ish, xizmat)larning xaridiga nisbatan tatbiq qilinadi.

4-BO'LIM. XARIDLARNI REJALASHTIRISH VA BOSHQARISH

4.1. Xaridlarni rejalashtirish davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi va xaridlarni tuzimlashtirishdan, davlat xaridlarini rejalashtirish hamda budjet va investitsiya jarayonlaridagi rejalashtirish, shuningdek xo'jalik faoliyatini rejalashtirish o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlashdan iborat bo'ladi.

4.2. Kelgusi yil uchun davlat xaridlarining yillik reja-jadvallari joriy yilning 25-dekabriga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

4.3. Kelgusi chorak uchun davlat xaridlarining choraklik reja-jadvallari joriy chorak oxirgi oyining 25-sanasiga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

4.4. Xaridlar samaradorligini oshirish maqsadida Jamiyat kombinatiyalangan xarid tizimidan foydalanadi, bunda:

- 2500 BHMdan ortiq bo'lgan yirik xaridlar, shu jumladan Jamiyatning barcha departament, filial, bo'linmlari tomonidan talab qilingan bir xil turdagi tovar (ish, xizmat)larning alohida partiyalarini birlashtirish natijasida shakllantirilgan yirik xaridlar hamda barcha import tovar (ish, xizmat)lar xaridlari markazlashtirilgan tarzda Jamiyat Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi;
- 2500 BHMdan kam bo'lgan tovar (ish, xizmat)larning xaridlari Jamiyatning tashkiliy tuzilmalari tomonidan markazlashtirilmagan tarzda sotib olinadi, zarur hollarda 2500 BHMdan yuqori bo'lgan tovar (ish, xizmat)lar Boshqaruvning yozma ruxsati bilan tashkiliy tuzilmalar tomonidan sotib olinishiga ruxsat beriladi.
Tovar (ish, xizmat)lar xaridi jarayonlarini tashkil qilishda summalar miqdorini sun'iy ravishda kichik partiyalarga bo'lish qat'iy taqiqlanadi.

4.5. Markazlashmagan xaridlarning amalga oshirilishida Qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyatning tashkiliy tuzilma rahbarlari mas'ul hisoblanadi.

4.6. Xaridlarni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha tezkor faoliyat Jamiyatning markaziy apparati va tashkiliy tuzilmalarining xarid bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

4.7. Markazlashgan xaridlarning iqtisodiy samaradorligi va qonunchilikka muvofiqligi uchun xaridlar bo'lini ma'sul xodimi va tegishli departamentlar javobgar sanaladi.

4.8. Markazlashtirilmagan xaridlarning iqtisodiy samaradorligi va qonunchilikka muvofiqligi, shuningdek tashkiliy tuzilmalarga yetkazib beriladigan markazlashtirilgan xaridlarni qabul qilish tartib-taomillari uchun tashkiliy tuzilmalarning xarid bo'linmalari javobgar sanaladi.

4.9. Tovlar (ish, xizmat)larni xarid qilish uchun texnik topshiriqlar ishlab chiqishda tovar (ish, xizmat)larning alohida hususiyatlarini belgilab quyish qat'iy taqiqlanadi. *(Muol*

uchun: Mahsulot ishchi jarayoniga ta'sir ko'rsatmaydigan, lekin ma'lum bir ta'fafa ustunligini ta'minlaydigan xususiyatlar).

5-BO'LIM. BOSHLANG'ICH NARX

5.1. Boshlang'ich narxlar ochiq manbalardan va marketing islohatlari natijasida olingan narxlar bo'yicha axborotlarni tahlil qilish asosida aniqlanadi. Bunda mas'ul ijrochi uchun 10 (o'n) ish kun mobaynida boshlang'ich (maksimal) narxlarni aniqlaydi lekin tovar (ish, xizmat)larning murakkabligiga qarab 20 (yigirma) ish kuniga qadar marketing islohatlarini o'tkazishi mumkin.

5.2. Boshlang'ich narxni belgilash uchun qiymat o'zgarishi koeffitsiyenti hisobga olingan holda o'tgan yilgi shartnomalarning reyestr ma'lumotlaridan, o'xshash tovarlarning narxlaridan, bir nechta ishlab chiqaruvchilar va bir nechta tashkilotlarning narxlari to'g'risidagi ma'lumotlardan, bozorni o'rganish bo'yicha, shu jumladan shartnomalar bo'yicha umum foydalaniluvchi natijalar va boshqa axborot manbalaridan foydalanishi mumkin. Boshlang'ich maksimal narxni belgilashda turli yetkazib beruvchilar tomonidan taklif etilayotgan tovar (ish, xizmat)lar narxlarining bir nechta variantlaridan foydalaniladi.

5.3. Agar narxlar to'g'risida axborot manbai Internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'idagi ma'lumotlar bo'lsa, shartnomaning boshlang'ich (maksimal) narxining asosida tovar (ish, xizmat)larning narxlari to'g'risida axborot joylashtirilgan Internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'ining manzili (URL-manzil) ko'rsatiladi. Bunda xarid hujjatlari bilan birga ekran tasvirining grafik surati (tegishli sahifaning "skrinshoti") ham saqlab qo'yiladi.

5.4. Belgilangan shartnomaning boshlang'ich narxi (lot narxi) xarid predmeti bo'lgan har bir turdagi tovar (ish, xizmat)larning narxi, shu jumladan tovar (ish, xizmat)larning birligi uchun narx ko'rsatilgan holda xarid hujjatlariga kiritiladi.

5.5. Tovlar (ish, xizmat)ning boshlang'ich narxini aniqlash va xaridlarni amalga oshirish uchun ixtisoslashgan tashkilot jalb qilinishi mumkin. (O'RQ-684, 21-modda).

6-BO'LIM. XARID USULLARI

6.1. Xarid usullarini tanlash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, hamda ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash va iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

6.1.1. Jamiyatning ehtiyojlar) uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish qonunchilikka asosan quyidagicha amalga oshiriladi:

a) xaridlarning raqobatli usullarini qo'llash yo'li bilan:

- birja savdolari;
- elektron do'kon;
- boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auktsion;

- eng yaxshi takliflarni tanlash;
- tender;
- kooperatsion portal orqali.

5) xaridlarning raqobatsiz usullarini qo'llash yo'li bilan:

- yagona yetkazib beruvchidan (tirochidan) xaridlar;
- to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish yo'li bilan.

6.1.2. Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etishda Jamiyat quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- xarid qilish tartib-tamoyillarini tashkil etish uchun tashkiliy, moliyaviy, inson va vaqt xarajatlarini hisobga olish;
- xarid qilish tartib-tamoyillari jarayonida korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklar namoyon bo'lish imkoniyatlarini maksimal darajada kamaytirish.

6.1.3. Xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish qonunchilikda belgilangan me'yorlarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga va Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga to'liq mos kelishi kerak.

6.1.4. Xarid qilinayotgan tovarning xususiyatlariga va xaridning shoshilinchligiga bog'liq ravishda, xaridlar bo'limi ma'sul xodimi qonunchilikka muvofiq tovar (ish, xizmat)larni xarid qilishning qonunchilikda belgilangan boshqa turlarini ham amalga oshirishi mumkin.

6.2. Elektron do'kon

6.2.1. Elektron do'konda maxsus talablar mavjud bo'lmagan iste'mol va boshqa tovar (ish, xizmat)lar xaridi amalga oshirilishi lozim. Qoida tariqasida, elektron do'konda xaridlar tovar (ish, xizmat)larga kutilmagan ehtiyoj yuzaga kelganda, tovarlarni shoshilinch almashtirish yoki ta'mirlash zarurati paydo bo'lgan hollarda amalga oshirilishi lozim.

6.2.2. Elektron do'konda quyidagi davlat xaridlari amalga oshirishi mumkin:

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha qiymatdagi tovarlar;

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha qiymatdagi ishlar, xizmatlar;

Elektron do'kon orqali korporativ buyurtmachi tomonidan ayni bir turdagi ishlar, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

6.2.3. Elektron do'kondan foydalangan holda xaridlarni amalga oshirish qonunchilikda belgilangan me'yorlarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga va Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga to'liq mos kelishi kerak.

6.3. Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auktsion

6.3.1. Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auktsion vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- tovarning standart xususiyatlarga ega bo'lishi;
- tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zarurati mavjud emasligi;
- tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorini tashkil etishi kerak.
- xizmatlar va ishlarning davlat xaridi auktsion ob'ekti bo'la olmaydi.
- tovarni e'lonida bayon etilgan shartlar asosida eng past narx bo'yicha yetkazib berishni taklif qilgan ishtirokchi auktsion g'olibi bo'ladi. Bunda mazkur norma belgilangan sifat standartlariga muvofiq bo'lgan tovarlarni yetkazib berish talabini bekor qilmaydi.

6.3.2. Elektron aukslondan foydalangan holda xaridlarni amalga oshirish qonunchilikda belgilangan me'yorlarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga va Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga to'liq mos kelishi kerak.

6.3.3. Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan aukslonda mahsulotlarni xarid qilish ijrochi tomonidan ushbu nizomning 2-ilovasidagi talabnomani taqdim etgan holda "Elektron savdolari tashkil qilish bo'limi" orqali joylashtiriladi.

6.4. Eng yaxshi takliflarni tanlash

6.4.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matnda tanlash deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;
- tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

6.4.2. Tanlash majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar mustasno.

6.4.3. Eng yaxshi takliflarni tanlashdan foydalangan holda xaridlarni amalga oshirish qonunchilikda belgilangan me'yorlarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga va Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga to'liq mos kelishi kerak.

6.4.4. Xarid komissiyaning mas'ul kotibi va buyurtmachi departament va bo'limi xodimi elektron tizimda birlashtirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining

taklifidagi ma'lumotlarga muvofiqligini tekshiradi va takliflar belgilangan talablarga to'g'ri kelishi bo'yicha qarorni uning asoslangan sabablari bilan tasdiqlash uchun xarid komissiyasiga kiritish muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran 5 (besh) ish kunida amalga oshiradi.

6.4.5. Xarid komissiyasi mas'ul kotibi va komissiya a'zolari tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchilarining takliflarini baholash muddati 3 (uch) ish kunida amalga oshiradi.

6.4.6. Xarid komissiyasi a'zolari dastlabki elektron bayonnomani hamda ishtirokchilardan e'tiroz tushganda ushbu e'tirozlarni ko'rib chiqish va tegishli qator qabul qilish elektron raqamli imzo (ERI)dan foydalangan holda imzolash muddat 2 (ikki) ish kunida amalga oshiradi.

6.4.7. Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmasdan tuziladi.

6.4.8. Eng yaxshi takliflarni tanlash orqali mahsulot (ish, xizmat)larni xarid qilish ijrochi tomonidan ushbu nizomning 2-ilovasidagi talabnomani taqdim etgan holda "Elektron savdolarni tashkil qilish bo'limi" orqali joylashtiriladi.

6.5. Tender

6.5.1. Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g'olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o'z ichiga oladi;
- tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi.

6.5.2. Tender majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

6.5.3. Tenderdan foydalangan holda xaridlarni amalga oshirish qonunchilikda belgilangan me'yoriarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonuniga va Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga to'liq mos kelishi kerak.

6.5.4. Xarid komissiyaning mas'ul kotibi va buyurtmachi departament va bo'lim xodimi elektron tizimda biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining taklifidagi ma'lumotlarga muvofiqligini tekshiradi va takliflar belgilangan talablarga to'g'ri kelishi bo'yicha qarorni uning asoslangan sabablari bilan tasdiqlash uchun xarid komissiyasiga kiritish muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran 30 (o'ttiz) ish kunida amalga oshiradi.

6.5.5. Xarid komissiyasi mas'ul kotibi va komissiya a'zolari tomonidan tender ishtirokchilarining takliflarini baholash muddati 10 (o'n) ish kunida amalga oshiradi.

6.5.6. Xarid komissiyasi a'zolari dastlabki elektron bayonnomani hamda ishtirokchilardan e'tiroz tushganda ushbu e'tirozlarni ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul

qilish elektron raqamli imzo (ERI)dan foydalangan holda imzolash muddat 5 (besh) ish kuni qilib belgilansin.

6.5.7. Tender natijalari bo'yicha shartnoma tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan boshlab o'n ish kunidan kechiktirmasdan tuziladi.

6.5.8. Tender orqali mahsulot (ish, xizmat)larni xarid qilish ijrochi tomonidan ushbu nizomning 2-ilovasidagi talabnomani taqdim etgan holda "Elektron savdolarini tashkil qilish bo'limi" orqali joylashtiriladi.

6.6. Hadli kelishuv

6.6.1. Hadli kelishuv vositasidagi davlat xaridlari Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomga 5-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

6.6.2. Hadli kelishuv vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g'olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o'z ichiga oladi;
- tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir hadli kelishuv bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi;
- muayyan (ko'pi bilan uch yilgacha) muddat davomida korporativ buyurtmachilar faoliyatida joriy ishlab chiqarish jarayonlarida foydalaniladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish uzluksizligini ta'minlash zarurati yuzaga kelishi.

6.6.3. Hadli kelishuvdan foydalangan holda xaridlarni amalga oshirish qonunchilikda belgilangan me'yorlarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga va Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga to'liq mos kelishi kerak.

6.6.4. Har bir o'tkaziladigan narx so'rovi va yekuniy baholash natijasiga ko'ra faqat bitta g'olib aniqlanadi va xarid qilish hujjatlarida va g'olib deb topilgan ishtirokchining taklifida ko'rsatilgan shartlar asosida o'n ish kunidan kechiktirmasdan shartnoma tuziladi.

6.6.5. Hadli kelishuv asosida tuzilgan shartnoma u tuzilgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi shart.

6.6.6. Hadli kelishuv orqali mahsulot (ish, xizmat)larni xarid qilish ijrochi tomonidan ushbu nizomning 2-ilovasidagi talabnomani taqdim etgan holda "Elektron savdolarini tashkil qilish bo'limi" orqali joylashtiriladi.

6.7. Birja savdolari

6.7.1. Miqdoridan qat'iy nazar jamiyat ehtiyojlari uchun yuqori likvidli mahsulotlar va birja savdolariga qo'yilgan birja tovarlarining ro'yxatida mavjud boshqa dastlabki ko'rikni talab etmaydigan, sifat ko'rsatkichlari o'zgarmasligi bilan tavsiflanadigan birja savdolariga qo'yilgan muayyan tur va sifatidagi mahsulotlar xaridi.

6.7.2. Tarkibiy bo'linmalar va tashkilotlar tomonidan birja savdo (SPOT)lari orqali mahsulotlarni xarid qilish faqat markazlashgan tarzda xaridlar bo'limi ma'sul xodimi orqali amalga oshiriladi.

6.7.3. Taqdim etilgan talabnoma haqqoniyligiga, talabnomada ko'rsatilgan narxlar va mahsulot parametrlariga, to'lovni amalga oshirish jarayonlariga tarkibiy bo'linmalar va tashkilotlar mas'ul xodimlari hamda mahsulot xarid qilishda talabnomani taqdim etgan ijrochi xodim javobgar sanaladi.

6.7.4. Birja savdolari (spot) orqali xaridlarni faqat hisob kliring palatasi (HKP) shaxsiy hisob varag'iga oldindan zakalat to'lovini amalga oshirgandan keyin ruxsat beriladi.

6.8. Kooperatsion portal

6.8.1. Miqdoridan qat'i nazar, sanoat mahsulotlari, jumladan mahalliylashtirilgan tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, xom ashyo va materiallar xaridi.

6.8.2. Xarid usuli to'g'risidagi qaror ushbu Nizomga va qonunchilikka muvofiq Buyurtmachi tomonidan qabul qilinadi.

6.8.3. Ushbu bandeda keltirilgan elektron shakida xarid qilish tartib-taomillari qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

6.8.4. Tarkibiy bo'linmalar va tashkilotlar tomonidan kooperatsion portal (cooperation.uz) orqali mahsulotlarni xarid qilish faqat markazlashgan tarzda amalga oshiriladi.

6.8.5. Taqdim etilgan talabnomada ma'lumotlar haqqoniyligiga, talabnomada ko'rsatilgan narxlar va mahsulot (ish, xizmat) parametrlariga, to'lovni amalga oshirish jarayonlariga tarkibiy bo'linmalar va tashkilotlar mas'ul xodimlari hamda mahsulot (ish, xizmat) xarid qilishda talabnomani taqdim etgan ijrochi xodim javobgar sanaladi.

6.8.6. Kooperatsion portal orqali xaridlarni faqat operator hisob varag'iga oldindan zakalat to'lovini amalga oshirgandan keyin ruxsat beriladi.

6.9. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari

6.9.1. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- Yagona yetkazib beruvchilar reystriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridi;

6.9.2. Davlat buyurtmachilari to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirishi shartligi belgilangan.

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo'lsa, ushbu shartnomalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

6.9.3. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar natijalarini maxsus axborot portaliga joylashtirish uchun muddatlarning buzilishiga sabab bo'lgan xodimga javobgarlik tayinlanadi.

6.9.4. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish qonunchilikda belgilangan me'yorlarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga va Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga to'liq mos kelishi kerak.

6.10. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi

6.10.1. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunda belgilangan tartibda yagona yetkazib beruvchi deb topilgan va Yagona yetkazib beruvchilar reystriga kiritilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchisi yagona yetkazib beruvchidir.

6.10.2. Yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur bo'lgan taqdirda, yetkazib beruvchi hamda davlat buyurtmachisi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuziladi va bu shartnoma to'g'risidagi axborot u tuzilgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi lozim.

6.10.3. Yagona yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzish qonunchilikda belgilangan me'yorlarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga va Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga to'liq mos kelishi kerak.

7-BO'LIM. TOVAR (ISH, XIZMAT)LAR XARIDI BO'YICHA KOMISSIYA FAOLIYATI

7.1. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish chog'ida davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantiriladigan, ushbu tartib-taomillarni o'tkazish tartibida shakllantirilishi talab etiladigan kollegial organdir.

7.2. Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari tanqabatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iborat.

7.3. Xarid komissiyasi davlat buyurtmachisi huzurida faoliyat ko'rsatadigan, davlat buyurtmachisining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladigan va tarqatib yuboriladigan organdir.

7.4. Xarid komissiyasi toq sonli a'zolardan iborat bo'ladi, uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda qonunchilikka muvofiq va olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

7.5. Xarid komissiyasi a'zolari xolis bo'lishi va xarid qilish tartib-taomili g'olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo'lmashligi kerak.

7.6. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi.

Xarid komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rinbosari bajaradi.

7.7. Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotibi tashkil etadi.

Xarid komissiyasining har bir a'zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

7.8. Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a'zolari hozirligida yuzma-yuz o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi mumkin.

7.9. Xarid komissiyasi eng yaxshi takliflarni tanlashni va tenderni elektron shaklda o'tkazish chog'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.

7.10. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yaqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkin.

7.11. Vakolatli organ vakilini boshqa davlat buyurtmachisining xarid komissiyasi tarkibiga kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

7.12. Xarid komissiyasi to'g'ri shakllantirilishi uchun davlat buyurtmachisi mas'uldir.

7.13. Xarid komissiyasi qarori xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz bo'ladi.

7.14. Xarid komissiyasi a'zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'rib chiqilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda xarid komissiyasi majlisining bayonnomasida quyidagi etiladi.

Agar xarid komissiyasiga mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa,

uning o'zi esa o'zini o'zi rad etmagan bo'lsa, bunday a'zoning mazkur masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar xarid komissiyasiga tegishli masala bo'yicha ovoz bergan mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi qaror qabul qilinganidan keyin ma'hum bo'lib qolgan bo'lsa, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

7.15. Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

7.16. Xarid komissiyasi davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliqligi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

7.17. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

7.18. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar davlat buyurtmachisi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari uchun majburiydir.

7.19. Xarid komissiyasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, xaridlar tartib-qoidalarini yuritishni tartibga soluvchi Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlariga, Jamiyat boshqaruvi qarorlari, Jamiyat Ustavi, buyruq va farmoyishlari hamda ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

7.20. Xarid komissiyasining har bir a'zosi va mas'ul kotibi davlat xaridlarining elektron tizimida 1 (bir) ish kuni muddatda shaxsiy kabinet ochadi va elektron raqamli imzo (ERI) oladi.

7.21. Xarid komissiyasining mas'ul kotibi eng yaxshi takliflarni tanlash va tender o'tkazish haqidagi e'lonning, tanlash va tender bo'yicha xarid qilish hujjatining va shartnoma loyihasining matnini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun elektron shaklda 2 (ikki) ish kun muddatda kiritadi.

7.22. Xarid komissiyasi a'zolari eng yaxshi takliflarni tanlash va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligini ko'rib chiqish va elektron raqamli imzo (ERI) bilan ikki ish kunidan kechiktirmagan muddatda tasdiqlaydi.

7.23. Tender savdolari bo'yicha texnik takliflarni ko'rib chiqish uchun tender komissiyasi tomonidan "O'zagrosug'urta" AJ mutaxassislari orasidan ekspert komissiyasi tasdiqlanadi yoki ekspert tashkiloti jabin qilinadi.

7.24. Ekspert komissiyasi kelib tushgan texnik takliflarni ko'rib chiqadi va 1-ilovaga muvofiq 2 ish kuni davomida texnik xulosasini taqdim etadi.

9-BO'LIM. SHARTNOMALAR NARXLARINI OSHIRILISHIGA YO'L QO'YGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

9.1. Shartnomalarda narxlarni shakllanishi bo'yicha o'rganishlar davomida narxlarni yuqori ekanligi aniqlanganda, shartnomani bekor qilishga (yoki narxlarni kamaytirgan holda qayta tuzish) va garov mablag'larini qaytarishga xaridlar bo'yicha mas'ul shaxslar javobgar hisoblanadi.

Bunda, kamchilik aniqlangan shartnomalar uchun tovar yetkazib beruvchilar hisob-raqamlariga o'tkazilgan garov summasini qaytarilmagan hollarda ushbu mablag'larni javobgar shaxslardan undirishga hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda intizomiy choralar ko'riladi.

9.2. Buyurtmalarni qabul qilish va tahlil bo'limi Boshqaruv raisiga imzolangan shartnomalar bo'yicha taxliliy ma'lumotlarni har chorak yakuni bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 15 sanasiga qadar kiritadi.

10-BO'LIM. O'ZGARISHLARNI TASDIQLASH VA AMALGA OSHIRISH TARTIBI

10.1. Ushbu Nizom Jamiyat buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

10.2. Mazkur Nizom o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirda qabul qilish yo'li bilan belgilangan tartibda o'zgartirilishi mumkin.

10.3. Ushbu Nizom tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.